



MAKTABGACHA TA'LIM VA TARBIYA TO'G'RISIDAGI QONUNCHILIKNI BUZGANLIK UCHUN JAVOBGARLIK

Turan International University

Gumanitar Fanlar va pedagogika fakulteti

Maktabgacha ta'lim SMT-22-CU guruh 4-kurs talabasi

Umarova Dilshoda Erkinovna

Annotatsiya

Mazkur ilmiy maqolada O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasini tartibga soluvchi qonunchilikning mazmuni hamda ushbu qonun hujjatlari talablarini buzganlik uchun belgilangan javobgarlik masalalari yoritilgan. Maktabgacha ta'lim tashkilotlari faoliyatida uchraydigan qonunbuzarlik turlari, ularning huquqiy oqibatlari va javobgarlik shakllari tahlil qilingan. Shuningdek, qonunbuzarliklarning oldini olishga qaratilgan chora-tadbirlar va huquqiy madaniyatni oshirishning ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so'zlar: maktabgacha ta'lim, tarbiya, qonunchilik, javobgarlik, huquqiy nazorat, ta'lim sifati.

Annotation

This scientific article examines the legislation regulating preschool education and upbringing in the Republic of Uzbekistan and the types of legal liability for violations of these laws. The article analyzes common violations in preschool educational institutions, their legal consequences, and forms of responsibility. Special attention is given to preventive measures and the importance of improving legal awareness among educators and administrators.



Keywords: preschool education, upbringing, legislation, liability, legal regulation, quality of education.

Kirish

Maktabgacha ta'lim va tarbiya jamiyat ta'lim tizimining boshlang'ich va muhim bosqichi hisoblanadi. Aynan ushbu bosqichda bolaning shaxsiy rivoji, ijtimoiy moslashuvi va keyingi ta'lim jarayoniga tayyorgarligi shakllanadi. Shu bois maktabgacha ta'lim tizimida faoliyat yurituvchi muassasalar, pedagoglar va rahbar xodimlar zimmasiga katta mas'uliyat yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasida maktabgacha ta'lim sohasini tartibga soluvchi qonunchilik bolalarning huquq va manfaatlarini himoya qilish, ta'lim sifati hamda xavfsizligini ta'minlashga qaratilgan. Qonun talablariga rioya qilinmasligi esa turli darajadagi huquqiy javobgarlikni keltirib chiqaradi.

O'zbekiston Respublikasining O'zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O'RQ-595-sonli hamda 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli qarorida maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik: maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunchilikni buzganlikda aybdor shaxslar belgilangan tartibda javobgar bo'ladi. Bu qonun Qonunchilik palatasi tomonidan 2023-yil 1-avgustda qabul qilingan Senat tomonidan 2023-yil 29-sentabrda ma'qullangan.

Mazkur hujjatlar maktabgacha ta'lim tashkilotlarining tashkiliy-huquqiy faoliyatini, pedagog xodimlarning huquq va majburiyatlarini hamda bolalarning xavfsizligini ta'minlash mexanizmlarini belgilab beradi.

Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi qonunchilikning huquqiy asoslari



Maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasidagi huquqiy munosabatlar quyidagi asosiy normativ-huquqiy hujjatlar bilan tartibga solinadi:

- ✓ O'zbekiston Respublikasining **“Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida”gi Qonuni;**
- ✓ O'zbekiston Respublikasining **“Ta'lim to'g'risida”gi Qonuni;**
- ✓ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari;
- ✓ Vazirlar Mahkamasining qarorlari;
- ✓ Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligining me'yoriy-huquqiy hujjatlari.

Qonunchilikni buzishning asosiy ko'rinishlari

Amaliyotda maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunchilikni buzish quyidagi holatlarda namoyon bo'ladi:

- bolalarning ta'lim olish huquqlarining buzilishi;
- davlat ta'lim talablari va o'quv dasturlariga rioya etmaslik;
- sanitariya-gigiyena va xavfsizlik qoidalarining buzilishi;
- pedagog xodimlar tomonidan kasbiy etikaga zid harakatlar;
- bolalarga nisbatan beparvolik yoki zo'ravonlik holatlari;
- litsenziya talablariga rioya qilmaslik;
- hujjatlarni noto'g'ri yuritish yoki soxtalashtirish.

Qonunchilikni buzganlik uchun javobgarlik turlari

Qonunchilikka muvofiq, maktabgacha ta'lim va tarbiya sohasida yo'l qo'yilgan huquqbuzarliklar uchun quyidagi javobgarlik turlari belgilanadi:

Ma'muriy javobgarlik



Ta'lim faoliyatini belgilangan tartibda amalga oshirmaslik, litsenziya talablarini buzish yoki me'yoriy hujjatlarga rioya etmaslik holatlarida mansabdor shaxslar ma'muriy jarimaga tortiladi.

Intizomiy javobgarlik

Pedagog yoki rahbar xodim tomonidan xizmat majburiyatlari buzilganda ogohlantirish, hayfsan berish yoki lavozimidan ozod etish kabi choralar qo'llaniladi.

Fuqaroviy-huquqiy javobgarlik

Agar qonunbuzarlik oqibatida bolaga yoki uning ota-onasiga moddiy yoki ma'naviy zarar yetkazilgan bo'lsa, yetkazilgan zarar belgilangan tartibda qoplanadi.

Jinoiy javobgarlik

Bolalarning hayoti va sog'lig'iga og'ir zarar yetkazish, zo'ravonlik, mansab vakolatini suiiste'mol qilish holatlarida jinoiy javobgarlik yuzaga keladi.

Qonunbuzarliklarning oldini olish masalalari

Qonunchilik talablariga rioya etilishini ta'minlash maqsadida:

- ❖ maktabgacha ta'lim tashkilotlarida ichki va tashqi nazorat tizimini kuchaytirish;
- ❖ pedagog xodimlarning huquqiy savodxonligini oshirish;
- ❖ ota-onalar bilan hamkorlikni mustahkamlash;
- ❖ ta'lim jarayonida shaffoflikni ta'minlash;
- ❖ muntazam monitoring va baholash tizimini yo'lga qo'yish muhim ahamiyatga ega.

Pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishga oid cheklovlar



- Quyidagi shaxslarning pedagogik faoliyat bilan shug'ullanishiga yo'l qo'yilmaydi:
- qonuniy kuchga kirgan sud hukmiga muvofiq pedagogik faoliyat bilan shug'ullanish huquqidan mahrum etilgan shaxslar;
- qonunchilikda belgilangan tartibda sud tomonidan muomalaga layoqatsiz yoki muomala layoqati cheklangan deb topilgan shaxslar;
- pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklari bo'lgan shaxslar;
- psixiatriya yoki narkologiya muassasalarida hisobda turgan shaxslar.
- Qasddan sodir etilgan jinoyat uchun ilgari sudlangan shaxslarni pedagogik faoliyat bilan bog'liq lavozimlarga qabul qilish man etiladi.
- Pedagogik faoliyatni amalga oshirishga to'sqinlik qiladigan kasalliklar ro'yxati O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlanadi.
- Maktabgacha ta'lim va tarbiya tizimida mehnat faoliyatini amalga oshirishga doir cheklovlar "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi **Qonuni** bilan belgilanadi.

Xulosa

Xulosa qilib aytganda, maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risidagi qonunchilikni buzganlik uchun belgilangan javobgarlik mexanizmlari bolalarning huquq va manfaatlarini ishonchli himoya qilishga xizmat qiladi. Qonunlarga qat'iy rioya etish maktabgacha ta'lim sifatini oshirish, sog'lom va barkamol avlodni tarbiyalashning muhim sharti hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. 55-modda O'zbekiston Respublikasining 2021-yil 21-apreldagi O'RQ-683-sonli Qonuni tahririda — Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi, 21.04.2021-y., 03/21/683/0375-son



2. O‘zbekiston Respublikasining “Maktabgacha ta’lim va tarbiya to‘g‘risida”gi Qonuni;
3. O‘zbekiston Respublikasining Qonuni, 16.12.2019 yildagi O‘RQ-595-son
4. <https://gov.uz/>
5. <https://lex.uz/>